Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

FILOLOGIYA VA TILLAR

UDK: 811.512.133`366.58+811.111`366.58
ORCID ID 0009-0006-0224-3315

VIZUAL KOGNITIV FE'LLARNING LEKSIK VA ASPEKTUAL XUSUSIYATLARI

Karimjonova Shahlo Ravshanjonovna
Farg'ona davlat universiteti,
Ingliz tili amaliy kursi kafedrasi katta o'qituvchisi PhD
E-mail: shahloxonkarimjonova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilida uchraydigan vizual kognitiv fe'l birikmalarining (masalan, *ko'rib chiqmoq, ko'rib turmoq, sinab ko'rmoq* kabi) leksik va grammatik turlari, shuningdek, ularning harakat tarzi (aspektual) ma'nolari tahlil qilinadi. Qo'shma fe'l va ko'makchi fe'l yordamida yasalgan birikmalar o'rtasidagi farqlar, ularning mustahkam leksik ma'noga ega yoki bosqichiy, davomiy, tugallangan harakatni ifodalaydigan shakllari batafsil yoritiladi. Tadqiqot natijalari ushbu fe'l birikmalaridan amaliy foydalanishda, xususan lingvodidaktika, tarjima va til strukturasini chuqur o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: vizual kognitiv fe'llar, qo'shma fe'l, ko'makchi fe'l, davomiylik, leksik birikma.

ЛЕКСИЧЕСКИЕ И АСПЕКТУАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ВИЗУАЛЬНЫХ КОГНИТИВНЫХ ГЛАГОЛОВ

Аннотация. В данной статье анализируются лексические и грамматические особенности (например, ko'rib chiqmoq, ko'rib turmoq, sinab ko'rmoq и др.) узбекских глагольных сочетаний, связанных с визуальным восприятием (визуально-когнитивные глаголы) и их аспектуальное значение (характер действия). Рассматриваются различия между сложными глаголами и конструкциями с глаголами-помощниками, а также выявляются устойчивые лексические значения либо формы, выражающие поэтапное, длительное или завершённое действие. Результаты исследования имеют практическую значимость при использовании данных глагольных сочетаний, в частности, в лингводидактике, переводе и углублённом изучении структуры языка.

Ключевые слова: визуально-когнитивные глаголы, сложный глагол, глагол-помощник, длительность, лексическое сочетание.

LEXICAL AND ASPECTUAL FEATURES OF VISUAL COGNITIVE VERBS

Abstract. This article analyzes the lexical and grammatical features (e.g., ko'rib chiqmoq, ko'rib turmoq, sinab ko'rmoq, and others) of Uzbek verb combinations related to visual perception (visual-cognitive verbs) and their aspectual meaning (the manner of action). It examines the differences between compound verbs and constructions with auxiliary verbs, as well as identifying stable lexical meanings versus forms that convey sequential, continuous, or completed actions. The

research findings have practical significance for the use of these verb combinations, particularly in language teaching, translation, and the in-depth study of language structure.

Keywords: visual-cognitive verbs, compound verb, auxiliary verb, continuity, lexical combination.

KIRISH. Dunyo tilshunosligida vizual kognitiv fe'llar va ularni tasniflash masalasiga bag'ishlangan izlanishlar ko'lami tobora kengayib bormoqda. Vizual idrok kognitiv fe'l sifatida o'rganilib, tilshunoslikda vizual kognitiv fe'llarning ifodalanishi, ularning semantik va leksik xususiyatlari, shuningdek, ushbu fe'llarning tilda qanday namoyon bo'lishi haqida tadqiqotlar mavjud. Ushbu sohani o'rganishda yangicha yondashuvlar ko'plab tilshunoslar diqqat-e'tiborini tortib, ilmiy tahlillar natijasida vizual idrok jarayonining til tizimidagi ifodalash mexanizmlari bilan bog'liq jihatlari aniqlanmoqda. Biroq, olib borilgan izlanishlarning aksariyati faqat bitta til doirasida amalga oshirilgan bo'lib, vizual kognitiv fe'llar chog'ishtirma aspektda yetarlicha o'rganilmagan. Shu jihatdan, vizual kognitiv fe'llarni ingliz va o'zbek tillari misolida chog'ishtirma tahlil qilish, ularning leksik-semantik va sintaktik xususiyatlarini o'rganish, shuningdek, madaniy va pragmatik tafovutlarni aniqlash zamonaviy tilshunoslikda dolzarb yo'nalish hisoblanadi. Zamonaviy o'zbek tilshunosligida ham vizual kognitiv fe'llarning lingvistik, pragmatik va madaniy jihatlarini o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Til inson tafakkurining mahsuli bo'lib, unda idrok, bilim va olam tasviri aks etadi. Vizual kognitiv fe'llar insonning ko'z orqali idrok qilish jarayonini, ko'rish natijasida shakllanadigan anglash, tushunish va bilish jarayonlarini aks ettiruvchi lingvistik birliklardir. O'zbek va ingliz tillarida ushbu fe'llarning qo'llanilishi turlicha bo'lib, ularning semantik, sintaktik va pragmatik xususiyatlarini chuqur o'rganish qiyosiy tilshunoslik, kognitiv lingvistika va tarjimashunoslik sohalarida muhim ahamiyat kasb etadi [2].

O'zbek tili, o'zining boy leksik-grammatik tizimi va o'ziga xos aspektual shakllari bilan ajralib turadigan tillardan biridir. Ushbu tizimda vizual kognitiv fe'llar – ya'ni ko'rish bilan bog'liq bilish, idrok va tushunish jarayonlarini ifodalovchi fe'llar – alohida o'rin tutadi. Til amaliyotida bunday fe'llar turli yordamchi fe'llar bilan birikib, o'ziga xos semantik ma'no kasb etishi yoki qo'shma fe'l statusiga ega bo'lishi mumkin. Aynan ana shu xilma-xil shakllar (masalan, ko'rib chiqmoq, ko'rib turmoq, ko'rib qolmoq, sinab ko'rmoq va hokazo) o'zbek tili grammatikasida muhim ilmiy tadqiqot obyektidir.

Mazkur maqolada vizual kognitiv fe'l birikmalarining ikki asosiy qirrasiga – qo'shma fe'l sifatidagi mustahkam leksik ma'noga ega shakllar hamda ko'makchi fe'l yordamida yasalgan harakat tarzi (aspekt) ifodalovchi shakllariga – e'tibor qaratiladi. Bundan tashqari, ayrim birikmalarda gerund + asosiy fe'l shaklida ketma-ket harakatni ifodalash holatlari ham ko'rib chiqiladi. Olingan xulosalar ushbu fe'l birikmalarini nazariy jihatdan to'g'ri tasniflash va amaliy nutqda samarali qo'llash uchun muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Quyida keltirilgan fe'l birikmalarini (masalan, ko'rib chiqmoq, ko'rib turmoq, yaxshi ko'rmoq va hokazo) o'zbek tili grammatikasida qanday turga mansubligini (qo'shma fe'lmi yoki ko'makchi fe'l yordamida yasalgan harakat tarzi shaklimi) aniqlab beramiz. Shu bilan birga, agar harakat tarzi ifodalansa, uning bosqichiy, davomiy yoki tugallangan ekani izohlanadi [6]. Qisqacha eslatma sifatida:

Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

Qo‘shma fe‘l – ikki (yoki undan ortiq) leksemadan tuzilgan yagona leksik ma’noga ega fe‘l; odatda bunday birikma umumlashgan bitta fe’l vazifasida ishlatiladi. Masalan, yaxshi ko‘rmoq (sevmoq), ko‘z yugurtirmoq (tezda ko‘zdan kechirmoq), sinab ko‘rmoq (tajriba qilmoq / biror ishni sinab ko‘rmoq) va hokazo.

Ko‘makchi fe‘l yordamida yasalgan harakat tarzi – fe’lning konverb (gerund: -ib / -ib) yoki boshqa shakli + kel-, qol-, tur-, bor-, chiq-, ber-, to‘xta- kabi yordamchi fe’l orqali ma’lum aspektual (harakat tarzi) ma’noni ifodalaydi: davomiylik, tugallanganlik, bosqichiylik, kutilmagan boshlanish/yakun va hokazo. Masalan, ko‘rib chiqmoq (tugallangan, “ko‘rib tugatmoq” ma’nosida), ko‘rib turmoq (davomiy), ko‘rib qolmoq (kutilmagan/birdanlik boshlanish — bosqichiy) va boshqalar.

Bosqichiy harakat tarzi (birdanlik yoki kutilmagan boshlanish/yakun): asosan qol-, tashla-, yubor-, ket-, tush-, to‘xta- kabilar bilan ifodalanishi mumkin.

Davomiy harakat tarzi: tur-, yur-, yot-, bor-, kel- kabi yordamchi fe’llar bilan davomiy yoki takroriy jarayon ifodalanadi.

Tugallangan harakat tarzi (yakuniy): chiq-, tashla-, ber-, bo‘l- va sh.k. yordamchi fe’llar bilan ish-harakatning tamom bo‘lishi, yakun topishi ko‘rsatiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Vizual kognitiv fe’llar struktural belgisiga ko‘ra sodda va murakkab turlarga bo‘linadi.

I. Sodda VCV – bir asosdan iborat bo‘lgan fe’llardir.

Sodda VCVlarni yasalganlik belgisiga ko‘ra ikki turga ajratish mumkin:

1. Sodda tub VCV – ko‘rmoq, qaramoq, boqmoq, angraymoq, mo‘ltaymoq, anqaymoq, chaqchaymoq, baqraymoq, go‘laymoq, do‘laymoq, mo‘ralamoq, poylamoq, kuzatmoq, termilmoq.

2. Sodda yasama VCV – ko‘zlamoq, yuzlanmoq.

Murakkab VCV – ikki va undan ortiq asoslardan tarkib topadi. Bunday fe’llarni qo‘shma, juft, takror VCVlarga ajratish mumkin.

II. Qo‘shma so‘z shaklidagi VCV – fe’llarning bu turini tashkil etgan qismlar turli so‘z turkumlari bilan ifodalanishi mumkin. Tarkibiy qismlarining ifodalanishiga ko‘ra qo‘shma so‘z shaklidagi VCVlar ikki xil bo‘ladi.

1. Fe’l bo‘lmagan so‘z + fe’l = VCV

O + F => (ot + fe’l) razm solmoq, nazar tashlamoq.

R + F => (ravish + fe’l) tik qaramoq.

2. Fe’l + fe’l = VCV – ko‘rib chiqmoq.

III. Juft so‘z ko‘rinishidagi VCVlar – ko‘rsa-ko‘rdiki. Masalan, Ashar cho‘chqaboqar bo‘lganidan beri kolxoz cho‘chqachilikdan zarar ko‘rsa-ko‘rdiki, foyda ko‘rmadi (S.Anorboyev).

IV. Takroriy so‘z ko‘rinishidagi VCVlar – qaray-qaray. Masalan, Sulton istar-istamas o‘rnidan turdi-da, ortiga qaray-qaray ko‘cha eshigi tomon ketdi (M.Shodiy, Yomg‘irdan so‘ng).

V. Ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi ko‘rinishidagi VCVlar: ko‘rib bermoq, sinab ko‘rmoq, ko‘rib qolmoq, ko‘rib turmoq, ko‘rib bormoq, kuzatib chiqmoq, kuzatib bormoq, kuzatib qo‘ymoq, boqib turmoq, ko‘rib olmoq, ko‘rib qolmoq.

VI. Ibora ko‘rinishidagi VCVlar: ko‘z yugurtirmoq, tik qaramoq, o‘ziga qaratmoq, yomon ko‘z bilan qaramoq, yuziga botinib qaramoq, chap ko‘z bilan qaramoq, og‘ziga qaratmoq, qarab turmoq, qiyg‘ir qarash qilmoq, kiprik qoqmay qaramoq, ola qaramoq, old-ortiga qaramoq, ko‘z tashlamoq, ko‘z qirini tashlamoq, ko‘z suzmoq, ko‘zni chalg‘itmoq, ko‘zi ola-kula bo‘lmoq, ko‘zini ko‘ziga tikmoq, ko‘zini kosa qilmoq, ko‘zdan kechirmoq, ko‘zdan qochirmaslik, ko‘ziga tik qaray olmaslik, ko‘z tikmoq, ko‘zni uzmaslik, ko‘zni uzmay, ko‘zini yerdan uza olmaslik, ko‘z tutmoq, ko‘z urishtirmoq, ko‘zga tashlanmoq, ko‘zdan qochirmoq, ko‘zi

tushmoq, ko‘zdan qolmoq, ko‘z olaytirmoq, ko‘zi qamashmoq, ko‘z solmoq, ko‘z ochib ko‘rgan, ko‘z ochirmaslik, ko‘zi ochiq ketmoq, ko‘zi pishmoq, ko‘zi tinmoq, ko‘zi to‘rt bo‘lmoq, ko‘zi o‘ynamoq, ko‘ziga issiq ko‘rinmoq, ko‘zini yog‘ bosmoq, ko‘zini shamg‘alat qilmoq.

Ingliz tilidagi vizual kognitiv fe’llarni quyidagicha guruhlarga bo‘lishimiz mumkin:

I. Oddiy VCVlar: to see, to look, to watch, to stare, to gaze, to glare, to peer, to gawk, to ogle, to glance, to view, to inspect.

II. Frazeologik birikma ko‘rinishidagi VCVlar. Ingliz tilida birikmalar asosida hosil qilingan frazeologik fe’llar juda keng tarqalgan va ular ko‘pincha yangi semantik ma’nolarni beradi. Masalan, look – qaramoq fe’li asosida shakllangan jami 40 ta frazeologik birikmalar aniqlangan va jadvalda unga misollar keltirilgan (20-ilovada keltirilgan). Look about, look about for, look after, look ahead, look around, look around for, look at, look away, look back, look back on, look beyond, look down on, look for, look forward to, look in, look in on, look into, look on, look on as, look out, look out for, look over, look round, look round for, look through, look to, look up, look up to, look upon, look upon as, look down upon, look out onto / look out upon, look forth (archaic), look forth on (archaic), look aside, look aside from, look up in.

Ingliz tilida see vizual kognitiv fe’liga taalluqli frazeologik birliklardan jami 17 ta misollar aniqlandi. Quyida ushbu misollarni jadval asosida ko‘rib chiqamiz (21-ilovada keltirilgan): see about, see after, see ahead, see around, see in, see into, see off, see out, see over, see through, see through to, see to, see beyond, see out of.

Watch vizual kognitiv fe’li ishtirok etgan frazeologik birliklardan jami 8 ta misollar bilan aniqlandi (22-ilovada keltirilgan): watch after, watch for, watch out, watch out for, watch over, watch on, watch against (archaic/literary), watch behind (rare).

Glance vizual kognitiv fe’liga oid jami 8 ta frazeologik birliklar aniqlandi (23-ilovada keltirilgan): glance at, glance over, glance through, glance off, glance back, glance up, glance down, glance around.

Ingliz tilidagi gaze vizual kognitiv fe’li frazeologik birliklar orqali ham qo‘llanilishi ma’lum bo‘ldi. Jami 5 ta vizual kognitiv fe’l qatnashgan frazeoligik bilan tahlil qilindi (24-ilovada keltirilgan). Gaze at, gaze on, gaze upon, gaze around, gaze off.

Stare vizual kognitiv fe’li ishtirok etgan 4 ta frazeologik birliklar aniqlandi (25-ilovada keltirilgan). Stare at, stare down, stare into, stare off.

Ingliz tilidagi frazeologik birliklardan peer vizual kognitiv fe’liga jami 5 ta misol aniqlandi (26-ilovada keltirilgan). Quyida ushbu misollarni ko‘rib chiqamiz: peer at, peer into, peer through, peer around, peer down.

Ingliz tilidagi scan, eye va view vizual kognitiv fe’llar doirasida jami 6 ta frazeologik birliklar aniqlandi (27-ilovada keltirilgan). Scan through, scan down, eye down, eye up, eye over, view with.

Ingliz tilida jami 93 ta vizual kognitiv fe’llar qatnashgan frazeologik birliklar aniqlandi.

III. Ibora ko‘rinishidagi VCVlar: keep an eye on, catch sight of, turn a blind eye to, see the light, in the blink of an eye, out of sight, out of mind, eye to eye, feast one’s eyes on, keep an eye out, bat an eye, bird’s eye view, catch someone’s eye, beauty is in the eye of the beholder, long time no see, see eye to eye, to see the back, see red, monkey see, monkey do (ko‘r-ko‘rona bajarmoq), can’t see the forest for the trees, look on the bright side, keep your eyes peeled.

Ingliz tilida vizual kognitiv fe’llar semantik jihatdan juda boy va xilma-xil bo‘lib, ular nafaqat idrokning turli shakllarini ifodalashga, balki idrok natijasida paydo bo‘ladigan hissiy va kognitiv jarayonlarni ifodalashga ham xizmat qiladi. Ular ko‘z

orqali idrok qilish, kuzatish, tahlil qilish, e'tibor qaratish va hatto tushunish bilan bog'liq turli nyuanslarni o'z ichiga oladi. Bunday fe'llarning sintaktik konstruksiyalari ham turlicha bo'lib, ular oddiy infinitiv shakldan boshlab propozitsiyalar bilan keluvchi birikmalargacha, sifatdosh va ravishdosh shakllari bilan birikishigacha bo'lgan ko'rinishlarda namoyon bo'ladi [3].

Bu fe'llarning ayrimlari (to see, to look at, to watch) to'g'ridan to'g'ri vizual kuzatishga qaratilgan bo'lsa, boshqalari (to scrutinize, to contemplate, to observe) idrok natijasida paydo bo'lgan tahlil, fikr yuritish va xulosalash jarayonlariga e'tibor qaratadi. Shuningdek, ba'zi fe'llar tasodifiy ko'z tashlashni (to glance, to glimpse), boshqalari esa diqqat bilan uzoq tikilishni (to gaze, to stare, to peer) anglatadi.

XULOSA. Qo'shma fe'l deb, odatda, bitta yangi leksik ma'noni ifodalovchi mustahkam birikmaga aytiladi (yaxshi ko'rmoq, ko'z yugurtirmoq, sinab ko'rmoq kabilar).

Ko'makchi fe'l yordamida yasalgan harakat tarzi esa konverb (e.g. ko'rib) + yordamchi fe'l (chiq-, tur-, qol-, bor-, kel-, ber-, to'xta-) orqali turli aspekt (davomiylik, tugallanganlik, bosqichiylik, kutilmaganlik va h.k.) ifodalashga xizmat qiladi (ko'rib chiqmoq, ko'rib turmoq, ko'rib qolmoq va boshqalar).

Ketma-ket harakat (gerund + asosiy fe'l) shaklida har ikki fe'l ham o'zining asosiy leksik ma'nosini saqlab, "oldin A, so'ng B" degan ma'noda qo'llanadi (ko'rib tanimoq, ko'rib yoqtirmoq, ko'rib baholamoq). Bunday hollarda yordamchi fe'l funksiyasi yo'q.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абдуазизов А. О составных частях когнитивной лингвистики // Хорижий филология, 2007, № 3.

2. Ашурова Д.У. Развитие когнитивной лингвистики в Узбекистане // Хорижий филология, 2016, № 3.

3. Беляевская Е.Г. Когнитивные основания изучения семантики слова // Структуры представления знаний в языке. – М., 1994. – С. 89.

4. Кубрякова Е.С. Начальные этапы становления когнитивизма; лингвистика – психология – когнитивная наука // Вопросы языкознания. – М., 1994. №4. – С. 37.

5. Кузнецов А.М. Когнитология, «антропоцентризм», «языковая картина мира» и проблемы исследования лексической семантики // Этнокультурная специфика речевой деятельности. – М., ИНИОН РАН, 2000. – С. 9.

6. Проскурин Е.Г. Когнитивная лакунарность текста как проблема межкультурной коммуникации. Диссертация на соис. ученой степени канд. филол. наук. – Барнаул, 2004. – С. 47.

7. Расулов Р. Ўзбек тили феълларининг маъно тузилиши. 2 нашри. – Тошкент, 2008. – Б. 65.

8. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б. 91.

9. Karimjonova, Shahlo & Sotvoldiyevna, Usmonova. (2022). The Causative Verb to Have in Modern English. International Journal of Multidisciplinary Research & Reviews. 1. 01-04. 10.56815/IJMRR.V1.I3.2022/1-4.

10. Karimjonova, Shahlo. (2021). COGNITIVE ASPECTS OF THE CAUSATIVE VERB TO HAVE IN MODERN ENGLISH. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES. 02. 141-145. 10.37547/philological-crjps-02-11-30.

11. Karimjonova, Shahlo. (2023). LEXICAL-SEMANTIC MEANINGS AND STYLISTIC FEATURES OF CAUSATIVE VERBS IN UZBEK LANGUAGE. International Journal of Information Sciences and Techniques. 13. 01-06. 10.5121/ijist.2023.13201.

12. Karimjonova, Shahlo. (2023). Stylistic Features of Causative Verbs in the Uzbek Language. Jurnal Multidisiplin Madani. 3. 879-884. 10.55927/mudima.v3i4.3217.

13. Karimjonova, Shahlo. (2023). The Meaning of Causative Verbs. Jurnal Multidisiplin Madani. 3. 14-18. 10.55927/mudima.v3i1.2732.

14. Karimjonova, Shahlo. (2024). An Investigation Into the Lexical-Semantic Meanings of Causative Verbs in English. Jurnal Multidisiplin Madani. 4. 372-375. 10.55927/mudima.v4i3.7346.

15. Karimjonova, Shahlo. (2024). Usage of Causative Verbs in Different Contexts. Jurnal Multidisiplin Madani. 4. 262-268. 10.55927/mudima.v4i2.3981.